



TALABALARDA QADRIYATLARGA BO'LGAN MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH

Sadaddinov U.U

*Nukus davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim kafedrası katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi madaniy hodisa sifatida integrativ tavsifga ega bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda zamonaviy sharoitda muhim hisoblangan axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishning muayyan darajasini o'zida aks ettirishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, talabalar, shaxs, me'yor, ta'lim, tarbiya.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalarda aksiologik orientatsiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, tarixiy-antropologik yondashuv asosida talabalarda milliy g'urur va iftixorni tarkib toptirishning pedagogik tizimini modernizatsiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy-madaniy merosga aksiologik munosabatni qaror toptirish, pedagogik layoqatni rivojlantirishning qadriyatga yo'naltirilgan komponentini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida deontologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, birlamchi pedagogik manbalar ustida ishlashning raqamli ta'limga asoslangan texnologiyalarini ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarflik kasb etadi [2. B. 74].

Bu haqida so'z yuritganda, «Aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat» [1].

Akademik R.X.Djuraevning ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiyani tashkil etishda talabalarni majbur qilish tarzida emas, balki har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, ularga har bir ishda namuna bo'lish, jamiyat talabi va ehtiyojlarni tushunish, intizomga qat'iy rioya etishiga, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga erishish, kerak bo'lgan paytda g'amxo'rlik qilish, tajriba va an'analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish hamda ulardan bo'lajak kasbida samarali ijodiy foydalangan holda amalga oshirish



muhimdir [3. 12]. Dastlab talabalarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda avvalo kasbiy bilimlar bilan birga o'z kasbiy faoliyatiga munosabatni tamoman o'zgartirish lozim. Texnologiya fanlarini o'qitishda talabalarning bilim saviyasini hisobga olgan holda pedagogik odobga mos holda olib borilishi kerak deb hisoblaymiz.

Bu esa o'z navbatida o'qitishning pedagogik-psixologik tamoyillari, o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ana shu jarayonning samaradorligi texnologiya fanlarini o'qitishda ta'limga munosabatni o'zgartiradi. Xullas, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lajak kasbiga qiziqish hamda uni egallab olishida samaradorlikka erishishda quyidagilarga amal qilish:

- ularning tabiatan o'ta ta'sirchanligi, irodasining mustahkam emasligi, o'zini tuta bilmasligi, ba'zi holatlarda manmanligini hisobga olib, shaxsiy qadr-qimmatini yerga urmay talabchanlikni oshirish;

- talabalarning kelib chiqishi va turli sharoitlarda voyaga yetganligini hisobga olib, ularga ma'naviy-axloqiy jihatdan samarali ta'sir etuvchi metod, vositalarni tanlash va individual yondashish maqsadga muvofiq [4. 13].

Mazkur masalalarni e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, boshqa fanlardan ham ma'ruzalarning samaradorligini oshirishda quyidagi vaziyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ma'ruzaning mazmuni (g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya bilan amaliyotning birligi, empirik materiallar ko'lami, bayon qilish shakli va boshqalar);

- mavzuga oid materiallarning muammoli bayon qilinishi;

- ma'ruzaning dalillar bilan asoslanganligi, haqqoniyligi, lo'ndaligi;

- ma'ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liqligi (muammomiz nuqtai-nazaridan tayyorgarlik masalasi);

- ma'ruzada materialning tizimli bayon etilishi (rejasi, tartibi, siqqligi, umumlashganligi);

- ma'ruzani o'qish usuli (zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ko'rsatmaliligi, o'qituvchi nutqi, his-tuyg'ularga boyligi, bayonning sur'ati, mantiqiyliqi, muloqot madaniyati);

- o'qituvchining talabaga munosabati (e'tiborliligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi);

- ma'ruzachilik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, ilmiy asoslanish, ma'ruza matnidan uzoqlashmay bayon qilinishi);



- maqsadga erishilganligi (ishlab chiqilgan yo'llar, sinalgan vositalar, egallangan usullar, shaxsiy nuqtai-nazarini bayon qilish, talabanning mustaqil holda ishlashiga imkoniyatning yaratilishi).

Ma'ruzada o'rganiladigan masalalarning qay darajada samarali bo'lganligi seminar mashg'ulotlarida aniqlanadi. Demak, seminar mashg'ulotlari ma'ruzaning uzviy davomi bo'lib, bo'lajak texnologiya o'qituvchilari mustaqil fikr yuritish olishi, ilmiy nazariyalarni qay darajada anglab olganligi, voqea-hodisalarga munosabat bildira olishlari namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda innovatsion va ilg'or texnologiyalarning jadal sur'atda ta'lim jarayonida qo'llana borishi munosabati bilan mashg'ulotlarda bo'lajak texnologiya o'qituvchilari faol qatnashmoqdalar, ularning mustaqil holda erkin mulohaza yuritishi va ijodkorligi kuchaymoqda, o'rtoqlari bilan bahslashuvi, muammoni tahlil eta olishi, o'z nuqtai-nazarini ishonch bilan himoya eta olishi kabi xislatlar shakllanmoqda.

Lekin mashg'ulotlarda o'rganilayotgan bilimlarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi yana quyidagi jarayonlarga ham e'tibor berish lozim:

- bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining o'rganilayotgan mavzulardagi eng muhimlari va ikkinchi darajalilarini ajrata bilishi;
- o'quv materialini tahlil etish orqali asosiy fikrlarni umumlashtira olish;
- kasbiy mahoratga doir bilimlarni egallab olganligi;
- ijodiy faolligi, mustaqil qaror qabul qila olish layoqati;
- kasbiy bilimlarni egallash doirasining kengligi;
- o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usining mavjudligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglab olganligi;
- o'zini kamol toptirishga intilishi;
- kasbiy ma'naviy axloq qoidalarga rioya etishi.

Ta'lim samaradorligiga erishishda, ayniqsa, o'qituvchining bo'lajak texnologiya o'qituvchilari bilan hamkorligi muhim omillardan sanaladi. Zero, bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirishning muhim vositasidir. Ta'limda ko'pincha buyruqqa asoslangan o'qitish uslubi qator muammolarga sabab bo'lmoqda. Ba'zi psixologlar, masalan A.Maslou guruhi talabada psixik fazilatlarning shakllanishida o'qituvchi va talaba hamkorligining rolini ifodalashda o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir deb ta'riflaydi [6; 29-b.]. Lekin barcha olimlarning fikrini jamlaganda, hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabanning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimi tushuniladi. Bu esa o'qituvchining talabani boshqarishidan boshlanib, talaba faolligi orta boradi va ular o'zi boshqaradigan



amaliy va aqliy harakatga aylanadi hamda o'qituvchi-talaba o'rtasidagi munosabat hamkorlik xususiyatiga ega bo'ladi. E.G'oziev hamkorlikning quyidagi shakllarini ko'rsatadi:

- pedagogik hamkorlik faoliyatiga kirishiladi;
- o'qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar amalga oshiriladi;
- o'qituvchi harakatni boshlab beradi, unga talaba faol jalb etiladi;
- o'qituvchidan ibrat olgan talaba namuna asosida harakat qiladi;
- o'qituvchi talabaga oraliq maqsad va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda natijani nazorat qiladi;
- o'qituvchi talabaning o'zini o'zi boshqarish harakatlarida ishtirok etadi;
- talabalar tomonidan o'zini o'zi ko'zg'atuvchi, o'zini o'zi uyushtiruvchi refleksiv harakatlarni amalga oshiradi [5; 29-b.].

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanlarini o'qitish metodikasi asoslari ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'ziga xos xususiyatlarini, bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga, talabalar dunyoqarashining kengligini, murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishni, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash, onglilik, to'g'rilik, aniqlik, kasbiy texnikani egallashda zukkolik, zehnlilik, ijodkorlik xislatlarini tarkib toptiradi. Hissiy-irodaviy sobitlik, jiplashib harakat qilishga o'rganish kabi xususiyatlarni, pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatli yondashuvni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur imkoniyatlardan ixtisoslikka oid fanlarni o'qitish bilan birga «Texnologiya» faniga oid fanlarni o'qitishda foydalaniladigan qadriyatlarni tizimlashtirish, bu borada ma'lum mezonlarga tayanish, har bir o'quv fanini o'zini ham bir qadriyat sifatida o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan. 2017 yil 22 dekabr.
2. Adilova D.N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz ta'lim-tarbiya asosi // «Boshlang'ich ta'limni takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar» mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari. –Toshkent, 2013. –B. 74-76.
3. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсифи-кации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.



4. Jamoldinova O. Yoshlar sogʻlom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan. dok. – T., 2015.- 51 b.
5. Gʻoziev E.G. Psixologiya. Yosh davrlar psixologiyasi. –T.: Oʻqituvchi, 1994. - 223 b.

